

Abdulla Avloniy asarlarining o‘ziga xos didaktik xususiyatlari

Nozimaxon Nozimjon-qizi Abduraxmonova
abduraxmonovanozimaxon73@gmail.com
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Millatimizda doimo e’tibor berib kelinayotgan jihat bu yoshlarning ta’lim-tarbiyasidir. Shuningdek, asarlarning ham ularning tarbiyasidagi o‘rni beqiyos. Ushbu maqolada taniqli ma’rifatparvar adib va pedagog Abdulla Avloniy asarlarining o‘ziga xos didaktik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Adibning ma’rifatparvarlik faoliyati, ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari hamda yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash g‘oyasi asosiy tadqiqot obyekti sifatida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: “Turkiy guliston yoxud axloq”, didaktik xususiyat, ta’lim va tarbiya, ma’rifatparvarchilik, “ Birinchi muallim”, “ Ikkinchi muallim”

The specific didactic features of the works of Abdulla Avloni

Nozimakhon Nozimjon-kizi Abdurakhmonova
abduraxmonovazozimaxon73@gmail.com
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: The aspect that has always been given attention in our nation is the education of young people., the role of works in education is incomparable. In three articles, the scientific and theoretical analysis of the specific didactic features of the works of the famous enlightener and educator Abdulla Avloni is presented. The writer's enlightening activities, views on education, and the idea of raising the younger generation as perfect people are highlighted as the main objects of research.

Keywords: “Turkish Gulistan or Morality”, didactic nature, education and upbringing, enlightenment, “First Teacher”, “Second Teacher”

Xalqimizda azal-azaldan adabiyotga qiziqish juda kuchli bo‘lgan. Doimo badiiy adabiyotning o‘rni baland bo‘lgan. Ayniqsa, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda ro‘y bergan ma’rifiy uyg‘onish jarayoni yurtimizda adabiyotning yanada kuchli o‘rishiga va o‘zbek pedagogik tafakkurining rivojlanishiga judayam katta turtki bo‘ldi deb aytish mumkin. Aynan shu davrda yetilib chiqqan adib va yozuvchilar ham bir talay hisoblanadi, jumladan: Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Ogahiy, Furqat va boshqa ko‘pgina adiblar shular qatoridadir. Shuningdek, aynan shu davrda yetilib chiqqan yana bir yirik ma’rifatparvar adib va kuchli pedagog Abdulla Avloniydir. U

o'z ijodining bosh maqsadi etib - millatimizning ravnaqi va badiiy qiymati bilan, balki chuqur ta'lim- tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan ham alohida ajralib turadi. Uning ijodining asosiy yo'nalishi- xalqni jaholatdan qutqarishga, ilm-ma'rifatga da'vat etishga va komil insonni tarbiyalash g'oyalariga qaratilgan. Abdulla Avloniy o'z asarlarida axloq masalasiga alohida yondashgandir. Axloq, bu - xulqlar majmuyi. Xulq esa ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo'lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va oliyjanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo'linadilar. Lekin bular kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bu kabi xulqlarning shakllanishi uchun esa ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak.

“Tarbiya yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo sadoqat - yo falokat masalasidir. Tarbiya inson tug'ilgan kundan boshlanib, toki umrning oxiriga qadar davom etadi. Avloniy tarbiyaning doirasini keng tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. “Sog' tanda sog'lom aql” degan hikmatning bejiz emasligini yaxshi biladi. Gapni birinchi navbatda bolaning sog'lig'i haqida qayg'urishdan boshlaydi. Badanning salomat, quvvatli bo'lishi esa insonga eng kerakli narsadir. Chunki, bir insonga o'qimoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun kuchlik, kasalsiz jasad lozimdir.”

Ayonki, tarbiya tushunchasiz insoniyat hayoti va kishilik jamiyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Tarbiya, axloq va ta'lim tiriklikning muvozanatini ushlab turuvchi muhim tirkaklardir. Tarbiya yoshlikdan to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, keyin uni o'zgartirib bo'lmaydi. Tarbiyasizlik nafaqat shaxsni tanazzulga boshlaydi, balki xalq, millat va Vatan taraqqiyoti uchun ham yovdir. Go'yoki, bir hunarmand kulolchi tomonidan yasalgan ko'zaga qaytadan shakl berib bo'lmagani kabi, o'z vaqtida berilmagan tarbiyani ham kechiktirib boshlashdan ma'no yo'q. Abdulla Avloniy yozadiki, xususan, temirchining bolasi tarbiyali bo'lsa olim bo'ladi, ammo xulqi buzuk bo'lsa u Luqmoni hakim farzandi bo'lsa ham baribir zolim bo'lib qolaveradi. Bu o'rinda mazkur fikrlarini muallif payg'ambarimizning quyidagi hikmatlari bilan dalillaydi: “Bir tog'ning o'rnidan ko'chib ketganini eshitsangiz, ishoningiz, ammo bir odamning xulqi boshqa bo'ldi deb eshitsangiz, ishonmangiz”.

Abdulla Avloniy ilmni axloqdan, ta'limni tarbiyadan, ma'rifatni go'zal xulqdan hech qachon ajratib talqin qilmaydi. Muallifning fikricha, “Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir“. Muallif aytayotgan ilmning mevasi ham, avvalo, tarbiya va ma'naviy yetuklik ekani ma'lum. Chunki, ilmli kishi har yerda hurmatga sazovor bo'ladi. U yuksak axloq sohibi ham bo'lsa, obro'-e'tibori yanada ulug' bo'ladi. Ilm olishga intilishni yozuvchi go'yo qorong'u g'ordan yog'du axtargan kishining holatiga qiyoslaydi. Bu intilishlar oxir-oqibatda insonni o'zi istagan yorug' manzillarga boshlaydi. Avloniyning yozishicha: Ilm insonni “Jaholat qorong'uligidan qutqarur”.

Abdulla Avloniy hayoti va uning ijodi o'zbek adabiyotshunosligida juda ko'plab o'rganib kelingan. Olib borilgan tadqiqotlarda uning ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari, ta'lim jarayoning didaktik jihatlari tahlil qilingan. Didaktika bu ta'limning bir sohasidir. Bu soha asosan pedagogikaning ta'lim jarayonini o'rganishga qaratilgan. U nimani o'qitish, qanday o'qitish va qay tartibda yetkazish kerakligini o'rganadi.

Didaktik xususiyat esa - o'zi bu ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarni tizimli yetkazish, ularni tarbiyalash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv materiallari, metodlar yoki vositalarning o'ziga xos ta'limiy- tarbiyaviy belgilari hisoblanadi. Ular ta'limning maqsadi, mazmuni va usullariga bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Avloniyning mana shunday asarlaridan biri "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridir. Bu asar o'zbek adabiyotchiligida pedagogik axloqiy qo'llanma sifatida baholanadi. Mazkur asar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda muallifning axloq kategoriyalarini tizimli ravishda sharhlagani, yaxshi va yomon xulqni qiyosiy asosda ochib bergani, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash g'oyasi asosiy didaktik tamoyil sifatida ko'rsatiladi. Yana qo'shimcha qilib shuni aytish joizki, Avloniy ushbu asarida tarbiyaning turlariga ham alohida e'tibor berib: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasini ta'kidlaydi. Shuningdek, Vatanni suyish haqida ham gap boradi.

Yana bir shunday noyob asarlaridan biri "Birinchi muallim" va "Ikkinchi muallim" asarlaridir.

"Birinchi muallim" asarida yaxshilikning javobsiz qolmasligi, yomonlikning esa ming yashirganing bilan jazosi borligi haqida gap ketadi. Ushbu asar ta'limni boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, u asosan yosh bolalarning savod chiqarishiga qaratilgan. Unda matnlar oddiy va sodda tarzda berilgan. Mana shu asarda yozuvchi qanoat haqida ham 4 qator she'r orqali juda tushunarli tarzda berib ketadi:

Qanoat birla qorin to'yg'uzursiz,
Qanoat bo'lmasa, ko'p och qolursiz.
Qanoatsiz kishi bag'rini dog'lar,
Qanoatlik kishi og'zini yog'lar.

Bu she'rni o'qigan o'quvchi sabr va qanoat haqida juda tez anglab yetadi. Yana shunday hikoyalarda ittifoq bo'lish haqida ham gap ketadi va unga misol qilib chumolilarning birligi keltiriladi. Ular shunday mitti hayvon bo'lishiga qaramay, birlashsalar hatto filni yiqitadilar deyiladi.

"Ikkinchi muallim" asari esa boshlang'ich ta'limning davomi hisoblanib, katta yoshdagi va savodi chiqqan bolalar uchun mo'ljallangan asar hisoblanadi. Uning tuzilishi biroz murakkabroq tuzilgan bo'lib, matn va she'rlar ham murakkab tarzdadir. Bu asarda axloq, vatanparvarlik, ilm-ma'rifat g'oyalari chuqurroq yoritiladi. Yana bu asar yoshlarni fikrlash doirasini ham kengaytiradi. Bu asarda hikoyalar ham bir muncha

uzunroq shaklda beriladi. Tarbiyaga oid masalalar ham turli xil bayon qilinadi. Ushbu asarda hayvonlardan ham o'xshatish timsoli sifatida foydalaniladi. Masalan, ayiqning nodon do'stga o'xshatilganligi, itning bahosi arzon bo'lishiga qaramay so'zlari qimmatli ekanligi ham yaqqol namunadir.

Tadqiqot jarayoni mobaynida biz shuni ko'rishimiz mumkinki, Abdulla Avloniyning asarlari va ijodi didaktik maqsadga yo'naltirilgan deb ayta olamiz. Xususan, uning "Turkiy guliston yoxud axloq", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" asarlaridagi natijalar shuni ko'rsatadi:

Ta'limiy-tarbiyaviy yo'nalish ustuvorligi - asarlaridagi har bir mavzu axloqqa oid xulosalar bilan yakunlanadi.

Axloqiy kategoriyalarning tizimliliigi - shuningdek asarda axloq turlari haqida bayon etilib, yaxshi xulq va yomon xulq tushunchalari qiyosiy tarzda ochib beriladi.

Soddalilik va tushunarlik tamoyili - Avloniyning har bir asari o'z o'quvchisiga o'qiganda tushinishi uchun juda sodda va tushunarlik tarzda yozilgan. Har bir o'quvchiga mos va xalqona tilda bayon qilingan.

Nazariya va amaliyot birligi - asarlarida biz faqatgina nazariyani emas, balki haqiqiy hayotiy misollar bilan ham tushuntirilganligiga duch kelamiz.

Abdulla Avloniy yozgan asarlarining har biri didaktik maqsadga ega va uning didaktik maqsadi faqatgina axloqiy tarbiya bilan cheklanib qolmaygina, yoshlardagi vatanparvarlik hissini yanada o'stirish, ularni Vatanni sevishga o'rgatish, milliy o'zligimizni anglash, ijtimoiy ongini shakllantirish kabi g'oyalar bilan limmo- limdir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o'zbek ma'rifatparvari, buyuk pedagog Abdulla Avloniy asarlari chuqur didaktik ahamiyatga ega. U har bir ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga axloqiy tarbiya yo'lida ham, Vatanni asrash yo'lida ham, ularni komillikka yetaklash yo'lida ham yaxshigina ustoz vazifasini o'taydi. Ular nafaqat avvalgi ta'limda bosh o'rinlarda bo'lgan, balki hozirgi zamonaviy ta'limda ham yetakchi o'rinlarini aslo yo'qotib qo'ymaydi. Avloniyning asarlari yosh avlodga yo'ldagi yo'lchi chiroq vazifasini o'taydi deb bema'lol aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 1-jild. – Toshkent "Ma'naviyat" 2009
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent "Ma'naviyat" 1998
3. Toxirovna, M. N. Annotation. This article examines the problem of implementing a systematic approach to the professional training of future teachers at the university, as this allows predicting their pedagogical activity.

4. Маматханова, Н. Т. (2021). Талабаларни ижтимоий-педагогик фаолиятга тайёрлашни ривожлантиришда аксиологик таълимнинг ўрни. Современное образование (Узбекистан), (3 (100)), 26-31.
5. Мамацанова, Н. (2021). Роль предмета «социальная педагогика» в подготовке будущих учителей к социально-педагогической деятельности. Психология и педагогика: Проблемы и решения, 1(1), 12-16.
6. Mamatkhanova, N. T. (2021). Formulation of social intelligence as a professionally important quality of a teacher. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(2), 390-397.
7. Маматханова, Н. Т. (2017). Об исследованиях воли и волевых качеств личности в психологии. NovaInfo. Ru, 2(60), 511-515.
8. Тохирjonova Nilufar Rustamjon qizi: Ustozlar uchun ilmiy jurnali: 74-son 3-to'plam iyun-2025, 117-125.
9. Ismoilova, D., & Roziqova, M. O. Q. (2026). Emotsiyalar va affektlarning inson xulq-atvoridagi roli. Science and Education, 7(1), 970-973.
10. Roziqova, M., & Tursunov, B. (2026, yanvar). TALABALAR O'RTASIDA STRESSNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI: JINSLAR FARQLARIGA ASOSLANGAN TAHLIL. Xalqaro konferensiya platformasida (1-son, 8-10-betlar).
11. Roziqova, M. O. Q., & Xalimjonova, G. (2026, January). THE IMPACT OF A PSYCHOLOGICALLY HEALTHY LIFESTYLE ON AN INDIVIDUAL'S EMOTIONAL STABILITY. In Claritas Conference Platform (No. 1, pp. 23-25).